

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
<b>U.N.Olimov</b>	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi .....	336
<b>M.Q.Tolibboyev</b>	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analarga doir mulohazalar .....	340
<b>X.S.Jumanazarov</b>	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
<b>Sh.N.Jo'rayev</b>	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
<b>D.G'.Mirzayev</b>	
"Turkiston viloyatining gazetasi" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili .....	361
<b>A.O.Toirov</b>	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
<b>P.A.Nabiyev</b>	
"Farg'ona vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)" .....	373
<b>A.A.Mamadjanov</b>	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakili .....	378
<b>P.A.Арслонзода</b>	
Тасвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айни .....	382

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova</b>	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir.....	389
<b>Z.J.Pardayeva</b>	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman .....	393
<b>H.Jo'rayev</b>	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
<b>K.A.Jamahmatov</b>	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi .....	404
<b>X.Jo'rayev, M.Ismoilova</b>	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi .....	410
<b>I.I.Rustamova</b>	
Dramada sahnada ko'rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini .....	413
<b>M.A.Jo'rayeva</b>	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti .....	417
<b>M.Islomova</b>	
Taqlid va Tasvir .....	421
<b>D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov</b>	
Isajon Sulton hikoyalarda shamol timsoli.....	424
<b>X.T.Мирзаев</b>	
Талқини рукноҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Фиёсиддин .....	428
<b>N.Q.Bo'riyeva</b>	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
<b>G.A.Mashrapova</b>	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
<b>Q.V.Yo'lchiyev</b>	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili .....	449
<b>B.N.Isakova</b>	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati .....	456



UO'K: 821.512.133.09-3

**BADIIY RETSEPSIYANING NAZARIY ASOSLARIGA DOIR****О ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВАХ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЦЕПЦИИ****ON THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF ARTISTIC RECEPTION****Kasimov Abdugapir Abdikarimovich**

Farg'ona davlat universiteti professori filologiya fanlari doktori

**Akbarova Shahlo G'aniyevna**

Farg'ona davlat universiteti nemis va fransuz tillari kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada retseptiv estetika va badiiy asar retsepsiyasining tarkibiy paradigmalari tahlilga tortilgan. Unda adabiy aloqalar adabiyot taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanib, "Adabiy munosabat" jarayonida ikkita asosiy omil – qabul qilayotgan va qabul qilinayotgan tomonlar faolligiga e'tibor qaratilgan. O'zbek adabiyotshunosligidagi ta'sir va talqin masalasi Alber Kamyu ijodi misolida yoritilgan. Shuningdek, nemis tadqiqotchisi Reynard Dol ishlab chiqqan tasnifga "milliy retsepsiya" tushunchasi yangilik sifatida kiritilgan.

**Аннотация**

В статье анализированы структурные парадигмы, рецептивной эстетики и рецепции художественного произведения. Подчеркивается, что литературные отношения имеют важное значение в обеспечении развития литературы, при этом уделяется внимание деятельности двух основных факторов в процессе «Литературного отношения» - принимающих сторон. Вопрос влияния и интерпретации в узбекском литературоведении освещается на примере творчества Альбера Камю. Также понятие «национальная рецепция» было включено как новшество в классификацию, разработанную немецким исследователем Рейнардом Долем.

**Abstract**

The article analyzes the structural paradigms, receptive aesthetics and reception of a work of art. It is emphasized that literary relations are important in ensuring the development of literature, while attention is paid to the activities of two main factors in the process of "Literary Relations" - the receiving and receiving parties. The issue of influence and interpretation in Uzbek literary criticism is illuminated using the example of the work of Albert Camus. Also, the concept of "national reception" was included as an innovation in the classification developed by the German researcher Reinard Dohl.

**Kalit so'zlar:** retsepsiya, Reynard Dol, D.A.Chugunov, dekodlash, ta'sir, A.Kamyu, talqin.**Ключевые слова:** рецепция, Рейнард Дол, Д.А.Чугунов, декодизация, влияние, А.Камю, интерпретация.**Key words:** reception, Reynard Dole, D.A.Chugunov, decodization, influence, A.Camus, interpretation.**KIRISH**

Turli ko'rinisdagi adabiy aloqalar barcha davrlarda adabiyotning yashashi va taraqqiyoti uchun muhim omil sanalgan. Adabiy aloqalar adabiyot taraqqiyotini ta'minlashda, adabiy jarayonni yangi badiiy asarlar, adabiy an'analar, adabiy oqim va yo'nalishlar, adabiy janrlar bilan boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Adabiy munosabat" jarayonida ikkita asosiy omil – qabul qilayotgan va qabul qilinayotgan tomonlar faol bo'ladi. Bu omillarning o'zaro munosabati retsepsiya tabiatini oldindan belgilaydi, uning oqibati esa ham qabul qilayotgan, ham qabul qilinayotgan tomonlar bu hodisaga moyilligi va qiziqishiga bog'liq bo'ladi.

Dunyoda madaniyatlararo muloqot masalalari har doimgidan ham ko'proq dolzarb sanalayotgan bir vaqtda, adabiyotdagi retsepsiya masalalari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

“Retsepsiya” soʻzi lotin tilidan olingan boʻlib, “receptio” – “qabul qilish” degan maʼnoni anglatadi. “Retsepsiya” atamasidan ilm-fanning turli sohalarida, jumladan, tibbiyot, fiziologiya, informatika, madaniyatshunoslik va huquqshunoslikda foydalaniladi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy retsepsiya nazariyasi adabiy tanqidning yangi yoʻnalishi boʻlib, XX asrning 60-70-yillarda Germaniya va AQShda adabiyot inqiroziga munosabat sifatida paydo boʻlgan. Uning shakllanishi va rivojlanishiga, asosan, germenevtika (falsafiy germenevtika) va fenomenologiya oʻz taʼsirini koʻrsatgan.

Retsepsiya nazariyasi ustida tadqiqotlar olib borgan madaniyatshunos Stuart Xoll retsepsiyaning “kodlashva dekodlash” konsepsiyasini, H.R.Yauss “kutish ufqi” (горизонт ожиданий) atamasini kiritadi. M.M.Baxtin esa retsepsiya atamasiga “kommunikatsiya”, “dialog” deb taʼrif bergan.

Polyak faylasufi va adabiyotshunosi Roman Ingarden (1893-1970) retseptiv estetikaning asoschisi hisoblanadi. Retseptiv estetikada barqaror maʼno yadrosi mavjud emas, u faqatgina matn va oʻquvchining cheksiz, koʻp qirrali oʻzaro taʼsiri natijasida paydo boʻladigan asar maʼnosining turfa xilligi va oʻzgaruvchanligini nazarda tutadi. Retseptiv estetika adabiyot va sanʼat haqidagi qarashlarni kengaytiribgina qolmay, anʼanaviy nazariyalardan voz kechishga yoʻl ochishi mumkin. Ingarden oʻz tadqiqotlarida matn-oʻquvchi-asar munosabatlarini oʻrganib, “aktuallashtirish”, “konkretlashtirish”, “kommunikativ noaniqlik” va “estetik tajriba” kabi asosiy tushunchalarni izohlashga harakat qilgan. Olim metaforaga asoslangan holda oʻquvchini vaziyat, matni esa mazmun deya ataydi. Ingardenmajoziy maʼnoda oʻquvchini “gʻilof”, matni esa “shu gʻilofda joylanishi nazarda tutilgan va unda mavjud boʻlgan narsa” deya taʼriflaydi. Chunki har bir kitobxon asar mutolaasidan oʻziga kerakli, gʻoya, tushuncha va zavqni oladi. Shu bilan birga, u matni turlicha talqin qilish imkoniyatini “oʻquvchining retseptiv va konstruktiv” faoliyati bilan bogʻlaydi. Ingarden fikricha idrok, asarning turli qatlamlariga kirib borib, uning tagmaʼnosini yuzaga chiqaradi. Demak, badiiy retsepsiya asar maʼnosining oʻzagiga yanada chuqurroq kirib borgandagina retsepiyent asarni toʻgʻri talqin qila oladi.

Nemis tadqiqotchisi Reynard Dol tasnifiga koʻra retsepsiyaning samarali-ijodiy (produktiv), reproduktiv, ilmiy, siyosiy va mafkuraviy turlari farqlanadi. Ularning har biri asar retsepsiyasi tadqiqi izchil boʻlishi uchun xizmat qiladi. Chunki olim taʼrif bergan barcha retsepsiya turlaridan bugungi kunda ham keng foydalanib kelinmoqda.

Shu oʻrinda Reynard Dol ishlab chiqqan tasnifga “milliy retsepsiya”ni ham qoʻshish mumkin deb hisoblaymiz.

Xalqlarning mavjud tarixi, milliy-madaniy qadriyatlarini, urf-odatlarini, afsonasi, qahramonlari va oʻz mentaliteti xalq olamini tashkil etadi. Badiiy asarlar orqali turli xalqlarning madaniyati, tarixi, turmush tarzi, anʼanalari va milliy qadriyatlarini, bir soʻz bilan aytganda shu xalqning mentaliteti bilan yaqindan tanishish barobarida madaniyatlardagi universal va differensial holatlarni oʻrganish, tahlil qilish hamda qiyoslash mumkin boʻladi. Badiiy asarlarda ham maʼlum bir xalq mentalitetining milliy manzarasi aks etadi. Har bir millat dunyoni oʻzgacha koʻradi va uning dunyoqarashi ham bir-biridan batamom farq qiladi. Chunki boshqa mamlakatda yoki boshqa bir davrda paydo boʻlgan turli xil madaniy matnlar yoki badiiy asarlar maʼlum bir jamiyat tomonidan mutolaa qilinadi, oʻrganiladi, idrok qilinadi, tahlil qilinadi va bu jarayonda aynan milliy retsepsiya shakllanadi. Kitobxon chet el adabiyotidagi maʼno-mazmun toʻgʻri dekodlanishi uchun oʻsha davr va oʻsha hududning sharoiti, muhiti, insonlarning yashash tarzi va dunyoqarashlarini qisman boʻlsada bilishi yoki toʻgʻri tasavvur qila olishi kerak boʻladi. Bejizga Gyote “...Shoirni anglash uchun uning mamlakatiga borish kerak,” deya taʼkidlamagan. Mashhur rus va amerikalik yozuvchi, adabiyotshunos V.V.Nabokov “Lolita” romanini ham rus ham amerikalik kitobxon uchun ikki tilda yozgan. Lekin asarning matni bir xil emas, chunki muallif oʻz oʻquvchilarining madaniy va maʼnaviy munosabatlardagi farqlarni, shuningdek, mentalitetni hisobga oladi.

XX asrda taʼsir va talqin masalalarini qiyosiy adabiyotshunoslik doirasida tadqiq etgan M.Jirmunskiy, M.P.Alekseyev, I.F.Belzu, R.Yu.Danilevskiy, G.A.Time, G.A.Fridlander (Rossiya), P.Van Tigem, F.Baldansperger (Fransiya), X.Rudiger (Germaniya), C.Laage (Germaniya), A.Dima (Ruminiya), R.Vellek (AQSh), P.Vaddington (Yangi Zelandiya) singari chet el olimlari bilan bir

## ADABIYOTSHUNOSLIK

qatorda F.Sulaymonova, Y.Solijonov, A.Rasulov, D.Quronov, I.Sulton, A.Qosimov, G.Sattorova, Sh.To'ychiyeva, M.Qo'chqorova singari o'zbek adabiyotshunoslarini ham sanab o'tish lozim bo'ladi.

**NATIJARLAR VA MUHOKAMA**

Badiiy ijod jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lgan, turli milliy adabiyotlarning aloqaga kirishuvi natijasida yuzaga keladigan ta'sir va o'zaro ta'sir adabiyotshunoslikning g'oyat murakkab, g'oyat sertarmoq masalalaridandir. U o'z ichiga, avvalo, ichki va tashqi ta'sir mavhumini oladi. Ichki ta'sir bir xalqning o'z adabiyoti doirasida davom etadigan hodisa bo'lib, o'tgan asrning yirik san'atkori keyingi asr yozuvchilariga o'lmas g'oyalarni ifoda qilishdagi ravon uslubi, xalqchil tili va janrlar xilma-xilligi bilan ta'sir etishi mumkin. Bu ta'sir alohida yozuvchilar o'rtasida bo'lganidek, bir davr adabiy harakatining ikkinchi davr adabiy harakatiga butunicha yaxlit ta'sir shaklida ham ko'rinadi. Chunonchi D.A.Chugunov adabiy aloqalar, o'zaro ta'sirlar va asar interpretatsiyalari (talqin) doirasiga: 1) turli mamlakatlar va turli davrlarning yozuvchilari o'rtasidagi o'xshash motivlar; 2) o'xshash syujetlar; 3) turli yozuvchilar asarlaridagi badiiy obrazlarning o'xshashligi; 4) turli adabiyotlar o'rtasida mavjud bo'lgan chuqur aloqalar kiradi, degan fikrni olg'a surgan.

Mustaqillik yillarida adabiyotshunoslikda A.Kamyu ijodining O'zbekistonda o'rganilishi, uning o'zbek adabiy jarayoniga ta'siri muammosi paydo bo'ldi. XX asrning ikkinchi yarmida jahon adabiy jarayonida o'z o'rniga ega bo'lgan Kamyu ijodi, uning uslubi, badiiyati, tafakkur tarzi ta'siri so'nggi yillar o'zbek nasrida ham sezila boshladi. Ushbu masala fransuz-o'zbek adabiy aloqalarining tarkibiy qismi bo'lib, muammoni ilmiy, nazariy jihatdan o'rganish va tegishli xulosalar chiqarish tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biri qilib belgilandi. Mazkur holatdan kelib chiqib, A.Kamyu ijodining O'zbekistonga kirib kelishi, ya'ni Kamyu asarlari retsepsiyasi va bu asarlarning o'zbek adabiyotiga ta'siri bilan bog'liq masalalar tadqiqi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XX asrning 90-yillaridan e'tiboran o'zbek nasri va she'riyatida inson "men"ini tadqiq etishga e'tibor kuchayib, bunda insonni o'ziga xos olam sifatida o'rganish, qayta kashf etish mezoniga aylanib qoldi. Murod Muhammad Do'st, Xurshid Do'stmuhammad, Tog'ay Murod, Nazar Eshonqul va Shodiqul Hamro asarlarida noan'anaviylik realistik tasvir bilan sintezlashtirilgan tarzda olib borilganligi fikrimizning isbotidir. Bugungi kun milliy nasrda modernistik yo'nalish asoschilari Jeyms Joys, Alber Kamyu va Frans Kafka qalamiga xos falsafiy mushohadakorlik hamda poetik joziba ta'siri yaqqol bo'rtib ko'rinadi. Milliy nasrimiz jahon nasri bilan bo'ylasha boshlaganini alohida e'tirof etish lozim.

O'zbek adabiyotshunosligidagi shakl-mazmun yangilanishlari, jahon hikoyachiligiga yaqinlashuvi shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, bugungi faol poetik eksperimentlar haqida gapirganda, birinchi navbatda, Xurshid Do'stmuhammad va Nazar Eshonqul ijodi ko'z oldimizga keladi. Bu ikki adibning hikoyalarida G'arb qissachiligining ilg'or ijodiy ana'analari, xususan, Kamyu asarlarining ta'sirini payqash qiyin emas.

Adabiyotshunoslikda talqin atamasi "interpretatsiya" so'zining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Interpretatsiya (lot.interpretation-tushuntirmoq) talqin adabiy asar mazmunini idrok qilish, badiiy konseptsiyasini anglash, tushunish demakdir.

Tushunish va talqin qilish jarayonining nazariy muammolarini o'rganuvchi soha – germenevtikadir. Germenevtika matn talqinini – tushuntirish, tahlil, sharhlashni tasvirlaydi. XIX asrda germenevtikaga har qanday tavsifdagi matnlarga ishora qiluvchi umumiy talqin nazariyasi sifatida qarala boshladi. Ushbu faslda Fridrix Shleyermaxer, Martin Xaydegger, Hans-Georg Gadamer, Fridrix Avgust Volf, Erik Donald Xirsh, Pol Rikyor, Sharl Augustin de Sent-Byov kabi olimlarning germenevtika va talqin borasida olib borgan izlanishlari atroflicha tadqiq etildi.

**XULOSA**

Demak, qiyosiy adabiyotshunoslik sohasi, milliy adabiyotlarning o'ziga xosligini, ularning tarixiy rivojlanishini va o'zaro ta'sirni u yoki bu milliy adabiyotni boshqalar bilan taqqoslash asosida o'rganish hamda interpretatsiya qilishni o'z ichiga oladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Stuart Hall: Encoding, decoding in the television discourse. – London, 1973.– P.65
2. Jauss H .R. Pour une esthétique de la réception.–Paris: Gallimard. 1978.– P.56
3. Гайдено П.П. Герменевтика и кризис буржуазной культурно-исторической традиции. – Вопр. Лит., 1977, № 5. – С.130-165.
4. Ингарден Р. Исследования по эстетике. –М.,1962. – С. 81.

5. Теории, школы, концепции. (Критические анализы). Художественная рецепция и герменевтика. Москва: Наука, 1985. – С. 16
6. **Döhl R. Das Neue Hörspiel. German Edition. 2009. – P.124.**
7. [Жирмунский В. М.](#) Гёте в русской литературе. – Л.: [Наука](#), 1981. –С. 558.
8. Алексеев М.П. Русско-английские литературные связи (XVIII – первая половина XIX века). –М.,1982. – С. 345.
9. Адабиёт назарияси. Адабий-тарихий жараён. – Тошкент.1979. – Б.65.